

MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA TA’LIM–TARBIYA PSIXOLOGIYASI

Karibaeva Nag’ima
Andijon davlat pedagogika instituti
maktabgacha ta’lim fakul’teti
maktabgacha ta’lim yo’nalishi sirtqi
1-bosqich 101-guruh talabasi
tel: +998974630082

Annotatsiya – maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarga ta’lim - tarbiya berishning ahamiyati juda katta. Bolalarga ta’lim - tarbiya berishda har xil pedagogik faoliyatlardan foydalanish ma’quldir. Shu borada tarbiyachi bir jihatdan psixologik ta’lim - tarbiya berishda ham asosiy o’rin egallaydi.

Kalit so’zlar: ta’lim - tarbiya, faoliyat, maktabgacha ta’lim tashkiloti, bolalar, tarbiyachi, psixolog

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalar bilan ishlash jarayoniga bir qator yangi o’zgarishlar kiritilmoqda. Bog’chalarda bolalarning vaqtini mazmunli o’tkazishni ta’minlashdan tashqari ularning psixologik holati, katta bo’lish jarayonlarida tashqi ta’sirlariga reaksiyasini o’rganilib, ular bilan malakali psixolog mutaxassislar ishlamoqda.

Tarbiya –tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar o’rtasida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyat bo’lib, tarbiya asosida tarbiyalanuvchining ongi shakllanadi, ma’naviy boyligi va his-tuyg’ulari rivojlanadi, o’zida ijtimoiy hayotda o’z o’rnini topish uchun zarur bo’lgan, kishilar bilan o’zaro munosabatni to’g’ri tashkil etishga xizmat qiladigan axloqiy odatlar hosil bo’ladi.

O’zbekistonda 3 mln nafarga yaqin 3–7 yoshli bola bor. Ularni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasi 74 foizni tashkil qilmoqda. Mamlakatda bu ko’rsatkichni 2026-yilgacha 80 foizga, 2030-yilga borib, 100 foizga yetkazish reja qilingan. Maktabgacha yosh 3-7 yoshgacha bolalarni qamrab oladi. Har bir yosh bosqichida bolaning jismoniy, aqliy va ruhiy jihatdan rivojlanishi o’ziga xos bo’ladi. Shu bilan birga ularning har biri o’ziga xos temperamentga ega bo’ladi. 6-7 yoshli bolani ta’limga jalb qilish masalasi murakkab masalalardan sanaladi. Bunda dastlab uch tomonlama aloqani mustahkamlash kerak. Ota-ona, bola, tarbiyachi (psixolog) o’rtasida aloqa har doimgidan ham mustahkamroq bo’lishi kerak. Dastlab bolada ta’limga bo’lgan qiziqishni shakllantirish kerak. Bolaning psixologik xususiyatlarini zarur bo’lsa psixolog bilan birgalikda aniqlab olib, o’ziga xos yondoshuvni topa olish, bolalarning diqqati, tafakkuri, qiziqishi, idrokini oshiruvchi psixologik o’yinlardan ko’proq foydalanib mashg’ulotlarni tashkil etish zarur.

MTTda bolalarga ta’lim - tarbiya berishda, ularni intellektual, ma’naviy-madaniy, ahloqiy yetuk, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, ularni maktabga har tomonlama tayyorlashga, voyaga yetkazishda tarbiyachining roli muhim ahamiyat kasb etadi. Tarbiyachi bolalarda hayvonlar, qushlar va o’simliklarni sevish zarurligi haqida tushuncha berishi, bolani sevishga o’rgatishi, bolaning tug’ma talantini ochib berishi, bolani aqliy, ma’naviy – ahloqiy jihatdan ham rivojlantirishi zarur.

Tarbiyachi bolani qiziqishlariga qarab besh faoliyat turida, yani beshta markazda aqliy jihatdan san’at, sahna, didaktika va ilm-fan faoliyatlarida har jihatdan kamol topishiga ko’mak berishi zarur.

1. Qurish, konstruktorlik va matematika markazi. Ushbu markazda har-xil qurish to’plamlari-kublar, legolar, bloklar, konstruktorlar, o’ynash uchun didaktik o’yinlar va

boshlang‘ich matematik tassavurlarni rivojlantirish uchun o‘quv materiallari bor. Unda qurish va yasashga qobiliyati bor bolalar jalb qilinishi kerak.

2. Syujetli-rolli o‘yinlar va dramalashtirish markazi: teatrning barcha turlari uchun artibutlar va o‘yin materiallari, rolli, dramatik, rejissorlik o‘yinlari, shlyapalar–maskalar, o‘yin to‘plamlari va burchaklarda o‘ynash uchun o‘yinchoqlar. Masalan: “Sartarosh”, “Kasalxona”, “Do‘kon” o‘yin artebutlari joy oladi. Shu kasbga qiziqishi bor bolalarni bu markaz o‘ziga jalb qiladi.

3. Til va nutq markazi: katta-kichik rasmlar, bolalar kitoblari kutubxonasi, tematik albomlar, topishmoqlar, albomlari magnit harflar to‘plami (rasimli alifbo).

4. Ilm fan va tabiat markazi: atrof muhit madaniyati bo‘yicha didaktik materiallar, “tabiat va odam” rasmlari va ilustrasiyalar, valeologiya bo‘yicha maketlar, uy hayvonlari, dengiz hayoti, hashoratlar, qushlar maketlari.

5. San‘at markazi: Tasviriy faoliyat zarur jihozlar, xalq hunarmandchilik, mahsulotlari tasvir etilgan albomlar, dekorativ-amaliy san‘at, turli xil xalqlarning hayoti, madaniyati, urf-odati aks etgan tematik rang barang kitoblar, erkin ijod uchun rasm chizish albomlari.

Tarbiyachi-psixolog ham bo‘lishi kerak u muntazam ravishda bolalarning kayfiyatini, xarakterini, uning ruhiyatidagi turli hil o‘zgarishlarni kuzatib unga mos yechimlarni topib ishlashi kerak bo‘ladi, juda muammoli vaziyatlarda psixolog va ota-onalar bilan xamkorlikda ishlashlari kerak. Bolaga oilasida yoki bog‘chada majburlab ta’lim berilmaydi. Masalan: qiziqishi yo‘q bolaga majburan biron narsani o‘rgatib bo‘lmaydi. Bolalar bog‘chaga birinchi kundan kelganidanoq har tomonlarga boqib, atrofni sinchiklab o‘rganadilar. Birinchi kundanoq bolalarga qo‘shilmaydi, o‘rtoqlarini o‘rganadi. Bu borada tarbiyachi sinchkov psixolog vazifasini bajarishi kerak. Bolani jamoaga qo‘shilishi uchun har xil didaktik o‘yinlar, jismoniy mashqlar va har xil sahna ko‘rinishlar faoliyatiga jalb qilishi kerak.

Ma’naviyat – moddiy hayot bilan yonma-yon yuradigan, xalq va jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lgan ijtimoiy hodisa. Bu tushunchaga birinchi Prezidentimiz Islom Karimov shunday ta’rif beradi: “Ma’naviyat – insonni ruhan poklanish, qalban ulg‘ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasining baquvvat, iymon– e’tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg‘otadigan beqiyos kuch, uning qarashlarining mezonidir”

Ahloq – kishining tabiati, muomala, xatti- harakati, odobi. Tarbiyachi bolaga milliy qadriyatlarimizni sevishtga, ilm tomonidan, didaktik, matematik o‘yinlardan, rasm chizishni o‘rgatish, aktyorlik qobiliyatlarini shakllantirishi lozim.

Xulosa: Bolalarning har biri bir olam, ularning har qaysining biron bir qiziqishi bo‘ladi. Tarbiyachi esa har bir bola biln alohida shug‘ullanib bolaning nimaga qiziqishini topa bilishi va to‘g‘ri yo‘naltira olishi kerak. Bolani mehnatga, o‘yinchoqlarini yig‘ishtirishga, guruhda bolalar bilan o‘ynashga, o‘rtoqlariga g‘amxo‘rlik qilishga, o‘zidan kattalarga hurmatda bo‘lishga o‘rgatish zarur. Bolani yaxshiroq o‘rganishi uchun pedagog tez-tez suhbat metodini qo‘llab turishi zarur. Maktabgacha yoshdagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini o‘rganib chiqib, uch yoshdan to‘rt yoshgacha bo‘lgan yosh aqliy va jismoniy rivojlanishning yuqori intensivligi bilan ajralib turadi degan xulosaga kelishimiz mumkin. Bolalar oddiy o‘yinlarni o‘ynash, rahbarlik ostida oddiy ijodiy ishlarni bajarish kabi ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

Bu davrda bolalarda xotira va e’tibor faol rivojlanadi, sabab va oqibatni tushunish, tasavvur paydo bo‘ladi, ijtimoiy hayot ko‘nikmalari shakllanadi, o‘z-o‘zini hurmat qilish rivojlanadi, jinsni bilish paydo bo‘ladi va nutq faol rivojlanadi. Bu davrda ixtiyoriy xulq-atvorning shakllanishi sodir bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2019/ Nazirjonov Orifxo‘Ja, Nuryog‘diyeva Mushtariy, Ubaydullayev Rustam Latipovich, Latifa Zarifovna Qorayeva “Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ta’lim tarbiyasiga qo‘yiladigan davlat talablari” T.2013 y.

2. N.M Qayumova “Maktabgacha pedagogika” TDPU nashriyoti T. 2013 y
3. “Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasi” S.X.Jalilova, S.M.Aripova Toshkent-2017
4. ВАҲАБОВА, Ў. (2023). ТУРЛИ ПСИХОДИАГНОСТИК МЕТОДИКАЛАРНИ ҚЎЛЛАШНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ. Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 134-138.